Trening jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari	861
<i>Nodirova M. B., Usmanova S. A., Vaxidova U. A.</i>	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarining sport faoliyati turlari orqali innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish	865
<i>Turdiyev Umiddjon Kamoliddinovich</i>	
Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	868
<i>Umarova Muhayyo Abdusattor qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboyevna</i>	
The Role of Family Support in Fostering Individual Resilience Against Social Offenses (An Integration of Continuing Education, National Values, and Personal Narratives)	873
<i>Khoshimov Lutfullo Khabibullo ugli</i>	
Milliy kiyimlarni zamonaviy material va konstruktsiya bilan uyg'unlashtirish	877
<i>Yuldasheva Gulsanam Arken qizi</i>	
Преподавание русского языка в школах Узбекистана глазами будущих педагогов	881
<i>Бахриева Шахноза Давроновна</i>	
Методологические основы дисциплины "Госпитальной педагогики"	886
<i>Равшанова Иноят Эркиновна</i>	
Тропеический блок как ключевой инструмент создания образа восприятия в романе С. Моэма "The Razor's Edge"	889
<i>Тагаева Тамара Баходировна</i>	
Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya integratsiyasi	892
<i>D. S. Zokirova</i>	
O'quvchi qizlarni oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirishda ota-onalar bilan ishlashning kollaborativ usullari	895
<i>Egamberdiyev Umidebek Xo'jayevich</i>	
Umumta'lim maktablarida kimyo fani o'qitishning samarali usullari	898
<i>Yunusov Mirzoxid Mirzakarimovich, Odilova Feruzabonu Oybek qizi, Soibjonova Gulasalxon Farhodjon qizi</i>	
Ertak qahramonlari obrazlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy va kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirish	901
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmuhamedovna, Dilnavoz Tojiyeva Abduvohid qizi</i>	
Raqamli o'quv muhitida multimedia kontentini loyihalashning didaktik tamoyillari	905
<i>Rustemov Muxamed Biysenbayevich</i>	
The Essence and Content of The Concept of Ecological Culture	908
<i>Sa'dullayeva Zuhra Murodullayevna</i>	



Talabalarda raqamli refleksiyaning shakllantirishi pedagogik muammo sifatida	912
<i>Salixova Muhayyo Shakirovna</i>	
Kasbiy leksik kompetensiya metodikasi shakllanishining tarixiy rivojlanish asoslari	915
<i>Tog'ayeva Maxfuza Abdunazarovna, Tilovova Gavhar Abdaxatovna</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar tavsifi.....	920
<i>U. M. Utbasarova</i>	
Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi sun'iy intellekt vositalari haqida tushuncha	925
<i>Xakimova Yoqutxon Toxirjon qizi, Pulatova Ziyodaxon Baxodirjon qizi</i>	
Проблемы перевода медицинских терминов: сложности и ошибки, возникающие при переводе медицинской литературы с других языков на русский.....	928
<i>Алибекова Лайло Рахмановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining mediakompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish: model, metodologiya va empirik natijalar	931
<i>Asqarxo'jayeva Movluda Saidmuhammadzokir qizi</i>	
Identifying the Cause of Addiction to Alcohol and Drugs.....	935
<i>Nauruzbaeva Ayjan Sarsenbaevna, Reymov Muxamedali Kengesbayevich, Kalmuratova Sara Umirzakovna</i>	
Methods of Utilising the Legacy of Eastern Thinkers in Education.....	938
<i>Raimova Nasiba Abdreimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirishda mediasavodxonlikning ahamiyati.....	942
<i>Raximova Zulfiyaxon Xashimjonovna</i>	
Pedagog va maxsus psixologlarni hamkorlikda tayyorlash texnologiyasining tarkibiy komponentlari va ularning xususiyatlari	949
<i>Turg'unov Mirjalol Mirzahamdani o'g'li</i>	
Og'ir vazn yo'qotish (weight cutting)ning organizm fiziologiyasiga salbiy ta'siri	952
<i>Ibragimov Azizbek Ilhom o'g'li</i>	
Языковая политика и её влияние на статус русского языка в образовательной среде Узбекистана ..	956
<i>Бобаназарова Шоира Содиковна, Нурмаматов Бобур Ботирович</i>	
Sun'iy intellekt didaktik ta'limot vositasi sifatida ahamiyati	961
<i>To'raboyeva Mahliyo Qo'zimbek qizi</i>	
Embracing Diversity in the Classroom: Inclusive Education Strategies for Empowering All Learners	964
<i>Bahronova Maftuna Farhadovna</i>	
Ta'lim jarayoniga xalqaro pedagogik tajribani samarali joriy etish: usullar va yondashuvlar	968
<i>Xakimov Sodiqjon Rasuljon o'g'li</i>	
O'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning shakllari, vositalari, usul va metodlari.....	972
<i>Abdiramanov Bahodir Sag'iydullaevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni zararli odatlarga qarshi kurashga tayyorlashning amaliy holati va tahlili	975
<i>Abdulazizova Nilufar Abdurahmonovna</i>	
Ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish mexanizmlari orqali talabalarda ekologik ongini shakllantirish.....	980
<i>Abdullayeva Umidaxon G'ulomidinova</i>	
Tayyorlov guruhi bolalarining tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	983
<i>Abdumuhitorova Mohlaroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	986
<i>Abdushukurova Mushtariy</i>	
Maktabgacha ta'limda estetik tarbiya berishning mazmuni va shakllari	991
<i>Altibayeva Gulbaxor Majitovna</i>	
Methods of Developing Linguocultural Competence Through Teaching Color Concepts	997
<i>Arabova Gulnuz Yuzboy qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati.....	1000
<i>Axunbabayeva Shaxnoza Shuxratovna</i>	
Hisor ekspeditsiyasi tarixi	1004
<i>Begaliyeva Mehriniso Olimnazarovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak fizika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari.....	1007
<i>Boqiyev Sarvar Tangirgul o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati	1011
<i>Bozorov Erkin Xodjiyevich, Ergashev Asqar Jong'oboyevich, Sharipov Sharofiddin Arslonqulovich</i>	

The Importance of Specialized Terminology in the Educational Process	1014
<i>Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna</i>	
The Problems of Linguistic Analysis of Elliptical Sentences in Modern English	1019
<i>Eshonkulov Ravshan Tokhirovich, Jurayeva Hilola Kamol qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda sintaksis materiallarini o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati	1025
<i>G'aniyeva Shodiya Azizovna, Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi</i>	
Rivojlanishi sust bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari	1028
<i>Hamroqulova Dilnavoz Fayziyevna, Tohirova Shaxnoza Nodir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari	1031
<i>Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoga ixtisoslashtirilgan mashqlar majmualari orqali egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish	1034
<i>Iminova Z. B.</i>	
Inklyuziv ta'lim tamoyillari, tizimi va unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati	1038
<i>Inayatova Nargisa Nishonboyevna</i>	
O'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish	1044
<i>Kalmuratovna Venera Sultanova</i>	
Integrativ yondashuv asosida tarbiyachilarning metakompetentligini rivojlantirish masalalari	1049
<i>Kamola Abdullayeva</i>	
O'rta Osiyo ziyolilarining mehnat tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari	1052
<i>Karimov Orif Obloqul o'g'li</i>	
Maktab ta'lim tizimida innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati	1055
<i>Kistabayeva Gulchexra Jo'raqulovna</i>	
Competency-Based Approach to Organizing the Educational Process for Pre-Service Teachers	1060
<i>Mahkamov Abdulqodir Ismoil o'g'li</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlarning ta'siri	1063
<i>Makulov Shuxratjon Zokirovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslar	1067
<i>Mamadjonova Sakina Mo'minjonovna, Maxmudova Oygul Toxirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy qobiliyati va ijodkorligini rivojlantirish	1072
<i>Mamatmo'minova Muhabbat G'afforovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqtga oid masalalarni yechishda 5E modelidan foydalanishning samaradorligi	1075
<i>Mansurova Umida Mansur qizi</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari	1081
<i>Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi</i>	
Sog'lom turmush tarzi – sog'lom kelajak kafolati	1084
<i>Murodov Nozimjon Olimjonovich</i>	
Bolalar nutqini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion shakllari	1088
<i>Nafasova Jamila Turg'un qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda ijtimoiy-kommunikativlikni bilingvizm vositasida shakllantirish	1093
<i>Najmiddinova Gulnoza Odilovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida kasrlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni va samaradorligi	1097
<i>Jalilov Muhammadali, No'monova Durdonaxon Ulug'bek qizi</i>	
Oliy ta'limdagi matematik kurslarni umumta'lim maktabi dasturlari bilan uyg'unlashtirish modeli	1101
<i>O'rozboyev Nusratbek Ziyaddin o'g'li</i>	
Yosh davrlar psixologiyasi va yoshga doir xususiyatlari	1104
<i>Orifjonova Nazokat Maribjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf darsliklaridagi assosiativ mashqlar orqali o'quvchilarda tabriya tushunchasini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari	1108
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi</i>	
Nemis tili o'qitish jarayonida talabalarni innovatsion-pedagogik faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari	1112
<i>Ostanov Askarjon Nuriddinovich</i>	



“Ilk qadam” maktabgacha davlat o‘quv dasturining pedagogik-psixologik asoslari	1117
Parmonkulova Mo‘tabar Zaynitdinovna	
Ta’lim sohasida motivatsiyani oshirishning samarali usullari	1121
O. I. Pirmatov, I. S. Sobirova	
Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik asoslari ..	1126
Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Xolboyeva Dildora Azizovna	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni ijodiy izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorlashning mavjud holati .	1131
Rahmatova Barnogul Karimjonovna	
Aqliy rivojlanishning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlanishiga ta’sirini empirik o‘rganish natijalari tahlili...	1138
Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida oilaviy munosabatlar tushunchasining rivojlanishi	1143
Rahmonova Dilafro‘z Baxronjon qizi	
Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari.....	1146
Roziqova Malika Olimovna	
Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning amaliy kompetensiyasini tajribalar orqali shakllantirish	1149
Sattorov Boburbek Zokirovich	
Chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida autentik materiallardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati ..	1153
Shaxlo Xalilova, Maqsuda Turapova	
Ta’lim tizimini moliyalashtirish	1156
T. Seydemetov	
Integrating Sports Terminology Into English Teaching	1161
Tursunboyeva Latofat Tuxtamurodovna	
Yuzni skanerlash asosida operatsion tizim foydalanuvchilarini identifikatsiya qilish algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.....	1165
Usmonov Maxsud Tulqin o‘g‘li	
The Impact of Didactic Play on the Development of Medical Students’ Visual Competence	1173
Utambetova Arzayim	
Bo‘lajak o‘qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tizimi	1176
Xudoyberdiyev G‘iyosiddin Baxtiyor o‘g‘li	
Bo‘lajak muhandislarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish omillari	1180
Xuramova Farangiz Uchqun qizi	
Inklyuziv ta’lim tamoyillari va uning mazmun-mohiyati	1185
Yakubjanova Muhayyo Qodirjanovna	
Classical Psychoanalysis and its Modifications Among Students: Z. Freud’s Classical Psychoanalysis	1189
Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova	
Talabalarini ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish texnologiyasi	1195
Zikriyayev Faxriddin Ma’mur o‘g‘li	
Проблемы формирования математических представлений детей в дошкольных образовательных организациях.....	1200
Пак Светлана Викторовна	
Теоретические основы формирования навыков говорения у учащихся уровня А2	1204
Сагиндилов Алишер Алеутдинович	
Проблема готовности детей старшего дошкольного возраста к обучению в школе	1208
Ширбачеева Гульчебра Шакировна	
Роль оздоровительной аэробики в повышении физической подготовленности учащихся	1211
Яхшиева Мехринигор Шавкатовна	
Zamonaviy futbol taktikalarining rivojlanishi va jamoa o‘yiniga ta’siri	1216
Mirzamatov Akramjon G‘apurjonovich	
Mehnat bozorining zamonaviy talablariga mos ta’lim modellarini loyihalash va metodik asoslarini ishlab chiqish	1219
Bannayev Qosimjon Qodirjonovich	

YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI VA YOSHGA DOIR XUSUSIYATLARI

Orifjonova Nazokat Maribjon qizi
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs rivojlanish jarayonida kuzatiladigan yosh davrlariga xos psixologik o'zgarishlar ilmiy asosda tahlil etiladi. Bolalik, o'smirlik, yoshlik va kattalik bosqichlarida ong, xarakter, emotsional holat hamda ijtimoiy moslashuvning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritiladi. Shuningdek, har bir yosh davrida ehtiyojlar dinamikasi, bilish jarayonlarining rivojlanish sur'atlari, motivatsiya va kommunikativ qobiliyatlarning o'ziga xos jihatlari izohlanadi. Maqolada yoshga oid psixologik xususiyatlarni o'qitish jarayonida, tarbiyaviy ishlar va ijtimoiy muhitni loyihalashda inobatga olishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yosh avlod bilan ishlashda individual yondashuvni kuchaytirish, pedagogik strategiyalarni takomillashtirish hamda psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yosh davrlari, psixologik rivojlanish, shaxs shakllanishi, bilish jarayonlari, emotsional holat, o'smirlik psixologiyasi, yoshga oid xususiyatlar.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the psychological changes observed at various stages of human development. It highlights the factors influencing the formation of consciousness, character, emotional state, and social adaptation during childhood, adolescence, youth, and adulthood. The paper also explains the dynamics of needs, the pace of cognitive development, as well as specific features of motivation and communication skills at each age stage. Special emphasis is placed on the importance of considering age-related psychological characteristics in the educational process, upbringing practices, and the design of social environments. The findings contribute to enhancing individualized approaches, improving pedagogical strategies, and organizing effective psychological support for young people.

Key words: age stages, psychological development, personality formation, cognitive processes, emotional state, adolescent psychology, age-related characteristics.

Аннотация: В статье научно анализируются психологические изменения, наблюдаемые на различных этапах развития личности. Освещаются факторы, влияющие на формирование сознания, характера, эмоционального состояния и социальной адаптации в периоды детства, подросткового возраста, юности и взрослой жизни. Кроме того, разъясняются особенности динамики потребностей, темпы развития познавательных процессов, мотивации и коммуникативных способностей на каждом возрастном этапе. Особое внимание уделено значению учета возрастных психологических характеристик в образовательном процессе, воспитательной работе и проектировании социальной среды. Полученные результаты способствуют усилению индивидуального подхода, совершенствованию педагогических стратегий и эффективной организации психологической поддержки молодежи.

Ключевые слова: возрастные этапы, психологическое развитие, формирование личности, познавательные процессы, эмоциональное состояние, психология подростков, возрастные особенности.

KIRISH

Insonning psixologik rivojlanishi murakkab, uzluksiz va bosqichma-bosqich kechadigan jarayon bo'lib, har bir yosh davri o'ziga xos ehtiyojlar, qiziqishlar, emotsional reaksiyalar hamda ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan ajralib turadi. Psixologiya fanida yosh davrlarini chuqur o'rganish nafaqat shaxsning individual rivojlanishini tushunishga, balki ta'lim-tarbiya jarayonida samarali metodlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Chunki har bir yosh bosqichi o'zining psixologik qonuniyatlariga, rivojlanish sur'atlariga, tafakkur shakllanishi va xulq-atvor dinamikasiga ega bo'lib, bu jarayonlarni e'tiborsiz qoldirish pedagogik faoliyatda sezilarli qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Yosh psixologiyasi fanida bola va o'smirning bilish jarayonlari, hissiy soha, motivatsiya tizimi, ijtimoiy rollarni egallash jarayoni, muloqot doirasining kengayishi hamda shaxs sifatida mustaqillashuvi markaziy o'rinni egallaydi. Bolalik davrida sezgi va idrokning shakllanishi, o'smirlikda o'zlikni anglash va emotsional beqarorlikning



kuchayishi, yoshlikda kasbiy o'zini topish, kattalik davrida esa ijtimoiy mas'uliyatning ortishi kabi holatlar har bir bosqichning fundamental xususiyatlaridir.

Zamonaviy jamiyatda yoshga oid psixologik xususiyatlarni bilishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ta'lim muassasalari, oilaviy tarbiya, ijtimoiy institutlar va ish faoliyati jarayonida shaxsning yoshiga mos yondashuvni tanlash rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning asosiy shartidir. Shuningdek, yoshga doir farqlarni to'g'ri anglash psixologik muammolarni oldindan aniqlash, stress omillarining ta'sirini kamaytirish va sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Shu sababli ushbu tadqiqotda yosh davrlarining psixologik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi, rivojlanish bosqichlarida sodir bo'ladigan muhim psixologik jarayonlar yoritiladi hamda ularni ta'lim va tarbiya amaliyotida qo'llashning dolzarb jihatlari ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari yosh avlod bilan ishlovchi mutaxassislar – o'qituvchilar, psixologlar, tarbiyachilar, trenerlar va ota-onalar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L. S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi yosh davrlar psixologiyasining asosiy ilmiy poydevorlaridan biri hisoblanadi ^[1]. Olimga ko'ra, shaxsning psixik rivojlanishi biologik omillargagina emas, balki ijtimoiy muhit, madaniy vositalar, til va muloqot jarayonlariga ham bevosita bog'liq. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasini" tushunchasini ilgari surib, bola o'z imkoniyatlaridan tashqari, kattalar yoki tajribali tengdoshlar yordamida yuqori bosqichdagi ko'nikmalarni egallashi mumkinligini asoslagan. Bu yondashuv yosh davrlarida kuzatiladigan bilish jarayonlari, tafakkur shakllanishi va motivatsiya dinamikasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Asarda bola faoliyati turli bosqichlarda turlicha mazmunga ega ekani, rivojlanish jarayonining uzluksiz, lekin bosqichma-bosqich sodir bo'lishi ilmiy dalillar bilan yoritilgan. Ayniqsa, o'smirlik davrida ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, shaxsiy identifikatsiya, mustaqillik va emotsional beqarorlikning kuchayishi kabi holatlar ijtimoiy-madaniy omillar bilan izohlanadi. Vygotskiyning ushbu qarashlari zamonaviy ta'lim metodikalarida, pedagogik psixologiyada va yoshlar bilan ishlash jarayonida keng qo'llanilmoqda. Uning nazariyasi yoshga oid xususiyatlarni to'g'ri baholash, shaxs rivojlanishiga mos yondashuvni tanlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi yosh davrlar psixologiyasida eng ta'sirli ilmiy yondashuvlardan biri sanaladi^[2]. Uning fikricha, bola tafakkuri muayyan bosqichlar orqali rivojlanib boradi va har bir bosqich shaxsning dunyoni idrok qilishi, mantiqiy fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyati bilan belgilanadi. Piaget bolaning bilish jarayonlarini kuzatish, eksperimentlar o'tkazish va ular asosida umumiy qonuniyatlarni aniqlash orqali rivojlanishning to'rtta asosiy bosqichini belgilagan: sensomotor, preoperatsional, konkret operatsiyalar va formal operatsiyalar bosqichi.

Piagetning tadqiqotlarida bola tafakkurining mantiqiy asoslari yoshga qarab murakkablashib borishi, o'smirlik davrida esa abstrakt fikrlash shakllanishi batafsil yoritilgan. Bu yondashuv yosh davrlarida o'quv jarayonini tashkil etishda, ta'lim mazmunini yosh xususiyatlariga moslashtirishda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi. Piagetning fikricha, bola tayyor bilimni o'zlashtirmaydi, balki faol bilish jarayonida uni qayta quradi; bu esa ta'limda interaktiv metodlar, ijodiy topshiriqlar va amaliy mashg'ulotlarni qo'llashning zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy metodlaridan biri nazariy-tahliliy yondashuv bo'lib, u yoshga doir psixologik jarayonlarni ilmiy manbalar asosida chuqur o'rganishni ta'minlaydi. Ushbu metod yordamida klassik va zamonaviy psixologik adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, psixologiya bo'yicha o'quv qo'llanmalar hamda xalqaro tadqiqotlar tahlil qilindi. Xususan, L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvi, J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, E. Eriksonning psixososial rivojlanish modeli va D. Elkindning o'smirlik psixologiyasiga doir ishlari mavzuviy asos sifatida o'rganildi.

Nazariy tahlil jarayonida yosh davrlarida kuzatiladigan bilish jarayonlari, emotsional rivojlanish, motivatsiya dinamikasi, shaxs shakllanishining bosqichlari, o'zini anglash jarayoni va ijtimoiy moslashuv mexanizmlariga oid ilmiy qarashlar solishtirildi va umumlashtirildi. Bu metod tadqiqotning ilmiy asoslarini shakllantirish, mavjud konsepsiyalar orasidagi farqlarni aniqlash, yosh davrlar psixologiyasining dolzarb masalalarini belgilash imkonini berdi. Shuningdek, nazariy manbalarni tahlil qilish orqali yoshga oid xususiyatlarni pedagogik jarayonda inobatga olishga oid metodik yondashuvlar aniqlanib, tadqiqotning konseptual modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ikkinchi muhim metodlar guruhi empirik yondashuv bo'lib, u yosh guruhlarini o'rtasidagi real psixologik o'zgarishlarni amaliy ravishda aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda ikki asosiy metod – psixologik kuzatish va yarim tuzilgan suhbat qo'llanildi.



Kuzatish metodi yordamida turli yosh davrlaridagi o'quvchilarning xulq-atvori, muloqot madaniyati, emosional reaksiyalari, motivatsion faolligi, o'quv jarayonidagi ishtiroki va ijtimoiy moslashuvi o'rganildi. Kuzatishlar tabiiy muhitda, ya'ni maktab va o'quv jarayonida olib borildi, bu esa xulq-atvorning sun'iy emas, tabiiy ko'rinishda namoyon bo'lishiga imkon yaratdi. Olingan ma'lumotlar yosh davrlarining psixologik xususiyatlarini amaliy jihatdan tasdiqlashga yordam berdi.

Yarim tuzilgan suhbat metodi orqali o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar bilan individual suhbatlar tashkil etildi. Savollar bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari, o'z-o'zini baholashi, hissiy holati, o'qishga bo'lgan munosabati, o'smirlikdagi qiyinchiliklari va ijtimoiy munosabatlar doirasi kabi jihatlarni qamrab oldi. Bu metod shaxsning ichki kechinmalarini, motivatsion omillarini, o'zlikni anglash jarayonidagi o'ziga xosliklarni aniqlashga yordam berdi. Empirik metodlar orqali olingan natijalar nazariy ma'lumotlar bilan solishtirilgan holda tahlil qilindi, farqli va umumiy jihatlar aniqlanib, yosh davrlar psixologiyasiga doir xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida turli yosh guruhlaridagi bolalar va o'smirlarning bilish faoliyati kuzatildi va suhbatlar orqali o'rganildi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar asosan konkret tasavvurlar asosida fikrlaydi^[3]. Ularning tafakkuri predmetli faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mavhum kategoriyalarni tushunishda qiyinchilik kuzatildi. Masalan, 2-sinf o'quvchilariga "do'stlik" tushunchasi haqida savol berilganda, ular ko'proq aniq vaziyatlarga tayanib javob berdi: "Do'stim – men bilan ko'proq o'ynaydigan bola", "Do'st – yonimda yuradigan odam". Demak, mavhum tushuncha hali ular ongida konkret hodisalar bilan cheklanadi.

O'smirlilik davrida esa tahliliy fikrlash, o'z fikrini asoslash, ijtimoiy vaziyatlarga munosabat bildirish qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan kuzatildi. O'smirlar abstrakt kategoriyalar – adolat, hurmat, yetuklik kabi tushunchalarni mustaqil izohlashga moyil. Misol uchun, 8–9-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan suhbatda "adolat" tushunchasini izohlashda ular "qonunlarning teng qo'llanishi", "inson huquqlariga hurmat" kabi abstrakt mazmundagi fikrlar bildirdi. Bu Piaget ta'riflagan formal operatsiyalar bosqichining amaliy namunasidir^[4].

Tadqiqot natijalari yosh davrlarida emosional barqarorlik va o'zini boshqarish qobiliyatida katta farqlar borligini ko'rsatdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida impulsivlik kuchli bo'lib, emosionalni nazorat qilish mexanizmi hali rivojlanmagan. Ular kichik muvaffaqiyatsizliklar yoki tanbehga sezilarli darajada emosional reaksiya bildiradi. Misol: darsda uy vazifasini unutgan o'quvchilardan ba'zilar yig'lab yubordi yoki o'zini oqlashga harakat qildi. Bu yosh davriga xos emosional sezgirlikni ko'rsatadi.

O'smirlilik davrida esa hissiy tajriba murakkablashadi. O'smirlar o'z his-tuyg'ularini boshqalardan yashirishga intiladi, lekin ichki kechinmalar kuchliroq bo'ladi. Ular o'ziga baho berish, jamoadagi mavqe, do'stlikning mustahkamligi haqidagi masalalarga juda sezgir. Masalan, suhbat paytida o'smirlar ko'pincha "mening fikrimni hurmat qilishmaydi", "menga adolatli munosabat bo'lishmayapti" kabi emosional mazmundagi shikoyatlarni tilga oldi. Bu davrda identitetning shakllanishi va mustaqillik ehtiyoji yetakchi o'rin egallashini ko'rsatadi^[5].

Tadqiqotda turli yosh guruhlarida motivatsiya turi har xil ekanligi aniqlandi:

- kichik yoshdagilarda tashqi motivatsiya ustun: maqto'v olish, rag'batnoma, o'yin elementlari orqali o'qishga qiziqishi oshadi;
- o'smirlilik yoshida esa ichki motivatsiya kuchayadi: o'z qobiliyatini isbotlash, tan olinishi va kelajak kasbiga yo'nalish muhim bo'ladi.

10-sinf o'quvchilari bilan suhbatda ko'pchiligi "kelajak kasbimga mos bilim olish uchun biologiyaga ko'p vaqt ajrataman" deb ta'kidladi. Bu yoshda maqsad sari yo'nalgan motivatsiya shakllanayotganini ko'rsatadi^[6].

Tadqiqot davomida yosh davrlarida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlar tizimli ravishda o'rganildi va nazariy hamda empirik usullar asosida tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, har bir yosh bosqichi shaxsning bilish faoliyati, emosional holati, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi bilan bog'liq o'ziga xos psixologik qonuniyatlar bilan ajralib turadi.

- *Birinchidan*, bilish jarayonlari rivojlanishida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi. Kichik yoshdagi bolalarda tafakkur asosan konkret tasavvurlarga tayanadi, mavhum tushunchalar esa real predmet va hodisalarga bog'liq holda shakllanadi. O'smirlilik davrida esa tahliliy va abstrakt fikrlash kuchayib, muammoli vaziyatlarga mustaqil yondashish, xulosalar chiqarish va tushunchalar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlash qobiliyati rivojlanadi.
- *Ikkinchidan*, emosional rivojlanish bosqichlari yoshga qarab sezilarli o'zgaradi: boshlang'ich yoshda impulsivlik va hissiy reaksiyalarning tezkorligi kuchli bo'lsa, o'smirlilik davrida ichki kechinmalar, o'zlikni anglash bilan bog'liq emosional beqarorlik ortadi. Bu davrda shaxsiy fikrni himoya qilishga intilish, tengdoshlar fikriga sezgirlik va o'ziga baho berish jarayonining faollashuvi kuzatildi.



- *Uchinchidan*, motivatsiya dinamikasi ham yoshga mos ravishda o'zgaradi. Kichik yoshda o'qishga bo'lgan qiziqish ko'proq tashqi omillar – maqto'v, baho, rag'bat orqali shakllansa, o'smirlik davrida ichki motivatsiya, ya'ni o'z qobiliyatini namoyon etish, kasbiy yo'nalishni belgilash va mustaqil qaror qabul qilish kabi omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yosh davrlar psixologiyasi – shaxsning tug'ilishidan boshlab voyaga yetguniga qadar kechadigan psixologik rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish uchun muhim metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida olingan ilmiy-amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, har bir yosh bosqichi o'ziga xos psixologik ehtiyojlar, motivlar, bilish faoliyati shakllari va emosional barqarorlik darajasi bilan ajralib turadi. Shuning uchun pedagogik yondashuvlar ham bosqichma-bosqich farqlanishi lozim.

Tahlil natijalari kichik maktab yoshi bolalarida qiziqishning ko'proq predmetli harakatlarga bog'liq ekanini, o'smirlik davrida esa o'zlikni anglash, tengdoshlar bilan muloqot, mustaqillikka intilish kabi ehtiyojlar kuchliroq namoyon bo'lishini ko'rsatdi. O'spirinlik bosqichida esa kasb tanlash, hayotiy maqsadlarni belgilash, shaxsiy qarashlarning shakllanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ota-ona va pedagoglarning noto'g'ri psixologik yondashuvi, yosh xususiyatlarini hisobga olmaslik, haddan tashqari bosim yoki e'tiborsizlik bolalarda o'ziga ishonchsizlik, xavotir, ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan. Tadqiqot ko'rsatishicha, yoshga mos metodlar qo'llan-ganda o'quvchilarning faolligi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari va kommunikativ ko'nikmalari sezilarli ravishda ortadi.

Demak, yosh davrlar psixologiyasini chuqur bilish nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar uchun ham zarur bo'lib, u bolalar bilan to'g'ri muloqot qilish, ularning rivojlanish sur'atini qo'llab-quvvatlash, shaxsning barkamol shakllanishiga sharoit yaratishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bo'riev M. Yosh davrlar psixologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Ergasheva S. Ontogenez va shaxs rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
3. Vigotskiy L. S. Psixologik rivojlanish nazariyasi. – Moskva: Pedagogika, 2019.
4. Elkonin D. B. Bola rivojlanish bosqichlari psixologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2018.
5. Davletshin M. Umumiy psixologiya va yosh xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2017.
6. Piaget J. Bolalar tafakkuri va intellekt rivoji. – Nyu-York: Routledge, 2015.
7. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 206–208.
8. Abdurakhmanova R. K. (2015). Hermeneutical and pragmalinguistic category of the deixis. *Nauka i Mir*, (10–2), 10–12.
9. Kosimovna A. R. UDK: 81.39 Paradigmatic properties of deictic units in the text.
10. Abdug'afforovna Q. D. (2024). Boburiylar davrida adabiyotga bo'lgan e'tibor. *American Journal of Multidisciplinary Bulletin*, 2(4), 71–75.
11. Madaminovich T. X. I., Samariddinovich S. S., Shavkatovna R. G., A'g'il N., Ko'smak F., & Cuma A. Tahririyat kengashi.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.